

JINOYAT VA JAZONING AHLOQIY-IJTIMOIY JIHATLARI

Ismoilov Ixtiyorjon

doktorant,

Farg'ona davlat universiteti,

O'zbekiston, Farg'ona sh.

Annotatsiya: Bugungi kunda jinoyat va jazo tushunchalarining axloqiy-huquqiy va ijtimoiy-falsafiy mazmun-mohiyatini tadqiq etish kun tartibidagi masalalardan biri sifatida baholanmoqda.

Zero, har qanday jinoyat, avvalo, ijtimoiy hodisa sifatida tasodifan ro'y bermaydi. hattoki, ba'zan ehtiyoitsizlik oqibatida tasodifan ro'y bergan jinoyat deya talqin etiladigan hodisa ham, aslida muayyan ijtimoiy ildizlarga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bu hodisaning shart-sharoitlarga bog'liq sabablarini aniqlamasdan, unga qarshi kurash ko'zlangan samarani bermaydi. Faqat shundan so'nggina turli usul va vositalar yordamida unga qarshi kurashish lozim bo'ladi.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyat, huquqiy madaniyat, jinoyat, jinoyat va jazo, demokratik jamiyat.

Yuridik entsiklopedik lug'atda: "Jinoyat – Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli, ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb hisoblanadi. Jinoyat boshqa qoida buzarliklardan o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Bu qilmishning ijtimoiy xavfsizligidir. Chunki jinoyat natijasida jamiyat va shaxs uchun ham moddiy, ham ma'naviy zarar etkaziladi. Shuning uchun jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi jinoiy oqibatda aks etadi"[1] deb ta'rif beriladi. Demak jinoyat tushunchasi o'zining ijtimoiy xavfi, aybliligi, qonun bilan taqiqlanganligi kabi xususiyatlari bilan boshqa qoida buzarliklardan farq qilar ekan.

Jinoyat va jazo g'oyasi Dostoevskiyda ko'p yillar davomida pishib yetilgan, ammo qahramonning "oddiiy" va "g'ayrioddiiy" odamlar haqidagi g'oyasi bilan bog'liq bo'lgan markaziy mavzu faqat 1863-yilda Italiyada shakllana boshladi. To'g'ridan-to'g'ri asar ustida ishlashni boshlagan muallif, Marmeladovlar oilasi va mahkumning vahiysi sifatida o'ylab topilgan romani mazmuni haqida hikoya qilingan, tugallanmagan "Mast" romani qoralamalarini birlashtirdi. Ish jarayonida reja kengaytirildi va syujet yaqinlarini qutqarish uchun lombardchi ayolni o'ldirgan talaba Rodion Raskolnikovning jinoyati asosida qurildi. Shu bilan birga, jinoiy voqeя muallif

uchun nafaqat mavzu, balki odamni jinoyat sodir etishga undaydigan ijtimoiy holatlar haqida mulohaza yuritish uchun imkoniyat bo'ldi. Shuningdek, odamlar qalbida qanday murakkab "kimyoviy" jarayonlar sodir bo'lishini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Roman obrazlaridan biri bu 19-asrning ikkinchi yarmidagi katta shahar bo'lib, u yerda hayot to'qnashuvlar va dramalarga to'la. Asar vaqtning taniqli belgilarini qayta tiklaydi, Sankt-Peterburg topografiyasini aks ettiradi

Falsafiy kategoriya sifatida jinoyat tushunchasi kishilarning muayyan noplari maqsadlarini amalga oshirish yo'lidagi amaliy xatti-harakatlari majmuasini aks ettiradi. Bashariyat taraqqiyoti davomida jamiyat rivoji va ravnaqi uchun xizmat qiluvchi ezgu muddaolarni maqsad qilib olgan hodisalar qatori unga zid ravishda, ba'zan jinoyat turkumiga kiruvchi hodisalar ham sodir etilib keladi. Bu hodisalar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmaydi, balki uni tanazzulga etaklaydi. Shu bois jamiyat a'zolari hamda turli ijtimoiy tashkilotlar, ijtimoiy institutlar tomonidan jinoyat hodisasi qoralanib keladi va unga qarshi kurash olib boriladi. Bu yo'lida dastavval jinoyatni keltirib chiqaruvchi sabablar va motivlarni aniqlash muhim.

Agar jinoyatga qarshi kurash olib borilmasa, bir jinoyatning ikkinchi jinoyatni keltirib chiqarishi xavfi ortib boradi. Bu esa, jamiyat hayotida jinoyatchilik deb atalmish hodisaning ildiz otishiga olib keladi. Bu holda jamiyatning ma'naviy hayotiga katta putur etadi. Jinoyatchilik tufayli davlat va jamiyatga katta moddiy va ma'naviy zarar etishi, kishilarning tinch-osoyshta turmushi izdan chiqishi, davlat boshqaruvidagi barqarorlik o'rniiga beqaror tartibsizliklar ro'y berishi mumkin. Binobarin, jinoyat amaldagi axloqiy, ma'naviy, huquqiy tamoyillar hukmron bo'lgan jamiyat hayotiga yot hodisadir.

"Jinoyat va jazo muammosi uzoq tarixga ega bo'lganligi sababli uning tarixiy-huquqiy tadqiqi ilmiy, amaliy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Jinoyat va jazo muammosini tarixiy-huquqiy jihatdan o'rganish ushbu ijtimoiy hodisalar evolyutsiyasining tarixiy jarayonini kuzatish, ularning rivojlanishining umumiyligi qonuniyatlarini retrospeksiya va istiqbolda aniqlash, o'tmishda to'plangan tajribani baholash imkonini beradi. Bu esa jinoyatlarga qarshi kurashish va samarali jazolarni qo'llash, jinoyat va jazo institutlarini rivojlantirishning uzlusizligini aniqlash, jinoyatlarga davlat-huquqiy ta'sir ko'rsatishning hozirgi kunda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarini takomillashtirish va jazo siyosatini samarali amalga oshirish imkonini beradi."^[2]

Darhaqiqat, jinoyatchilik nisbatan ommaviy xususiyatga ega bo'lgan va ayni vaqtida odamlar va jamiyat manfaatlariga oshiqcha ijtimoiy xavf tug'diradigan, amaldagi jinoyat qonunchiligidagi jinoyat deb e'tirof

etilgan ijtimoiy belgilangan qilmishlar (harakatlar yoki harakatsizlik)ning muayyan majmuidir. Binobarin, yuridik adabiyotlarda “jinoyatchilik – 1) davlat va huquq nazariyasi, kriminologiya asoslariga ko'ra, jinoyatchilik keng ma'noda u yoki bu jamiyatdagi barcha qonunbuzarliklarning umumlashgan tushunchasi sifatida qo'llaniladi; 2) tor ma'noda jinoyat va uning mavjudligi tushuniladi va aynan jinoyatchilikka oid qonunlarni buzish jinoyatchilik deb ham o'rganiladi”[3] degan ta'rif berilgan.

Tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida jinoiy jazolarning amaldagi tizimi, ularning alohida turlari, ularni ijro etish va o'tash shartlari hali ham shakllanish bosqichida ekani, buning isboti sifatida huquqiy javobgarlik mexanizmiga kiritilgan ko'plab o'zgarishlar, so'nggi yillarda tartibga solish va jazoni ijro etish tizimini isloh qilish yo'nalishi dalolat beradi. Shu bilan birga, bu borada xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish mantiqan to'g'ri bo'lardi. Huquqiy tartibga solishning mazmuni va umumiy tamoyillari jihatidan O'zbekiston huquqiga o'xhash, barcha MDH davlatlari uchun xos bo'lgan roman-german huquq tizimini tan olish kerak. Bu qonunchilikdagi jiddiy farqlarga qaramay, MDH davlatlarining aksariyati o'zlarining huquqiy tizimlarini yaqinlashtirishga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Ushbu xulosaning tasdig'i sifatida MDH mamlakatlari uchun Jinoyat va Jazoni ijro etish kodekslarining namunasini keltirishimiz mumkin. Shu bilan birga, anglo-sakson huquq tizimiga mansub mamlakatlar, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining qonunchilik va penitentsiar tajribasi ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otadi

Ma'lumki, jinoyatchilikka karshi kurashda va uning oldini olishda qo'llaniladigan asosiy vositalardan biri, bu jinoiy jazo hisoblanadi. Yuridik adabiyotlarda jazo tushunchasi, uning maqsadlari yuzasidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan[4]. Jazoning mohiyati va yuridik tabiatini ochib berish, jinoyat huquqida markaziy masalalardan biri bo'lib, usiz jazoning mazmun va maqsadi, tarbiyaviy va ogohlantiruvchi ahamiyati to'g'risida tasavvur hosil qilish mumkin emas. Jinoyat va jazo hayotdagi turli hodisalar bo'lib, o'z navbatida, ularning bir-biri bilan bog'liqligini inkor etib bo'lmaydi. Jinoyat – alohida shaxs tomonidan (guruh) qonun normalarini buzib, muayyan harakat yoki harakatsizlikni sodir etish bilan bog'liq bo'lsa, jazo – davlatning majburlov chorasi bo'lib, uning jinoyat sodir qilgan shaxsning jinoiy xulqiga nisbatan munosabatidir. Ya'ni jinoyat va jazo bir-biri bilan bog'liq va ajralmas bo'lib, bir-birisiz mavjud bo'lolmaydi, ular harakat va qarshi harakat, xavf va ushbu xavfni bartaraf etuvchi, zarar (yovuzlik) va unga qarshi kurashuvchi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun bu

borada N.S.Tagantsev «jinoiy qilmish haqidagi tushunchadan, jazo ushbu qilmishni sodir etgan shaxs bilan davlat o'rtasidagi alohida munosabat ekanligi kelib chiqadi», deb ta'kidlagan edi[5]. Demak, jazo davlat bilan jinoyat sodir etgan shaxs o'rtasidagi huquqiy munosabatlar ifodasi hisoblanadi. Ushbu holat O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra «Jinoyat kodeksining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek, jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni Konstitutsiya va qonunlarga riosa qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun kodeks javobgarlikning asoslari va printsiplarini, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligini aniqlaydi, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lган jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarini belgilaydi.

Jazo – sud xukmi bilan jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan va sudlanuvchini ozodlikdan maxrum qiluvchi yoki uning xuquq va erkinliklarini cheklovchi majburlov chorasiidir.

Jinoiy jazo davlat majburlov chorasi bo'lib, u bu majburlov choralaridan quyidagi o'ziga xos xususiyatlar bilan farq qiladi.

Jinoiy jazo davlatning boshqa majburlov chorasiga o'xshasada, aynan jinoiy jazo hisoblangan davlatning majburlov chorasingning o'zigagina xos bo'lган belgilariga ega bo'lib, bularga quyidagilar kiradi.

Jinoiy jazo davlatning majburlov chorasi sifatida faqat jinoyat qonunidagina belgilanadi. Jinoyat kodeksining 43-moddasida jinoiy jazoning qat'iy turlari belgilangan bo'lib, shu moddada belgilangan jazodan tashqarisini jinoiy jazo sifatida qo'llash mumkin emas.

Jazo tizimi deganda, jinoyat qonuni bilan o'matilgan va sudlar uchun majburiy hisoblangan va ma'lum tartib asosida ularning engilidan og'iriga qarab joylashtirilgan jazolar ro'yxati tushuniladi. Jazo tizimi tushunchasi o'zida bir qator belgilarni nazarda tutadi. Jumladan, jazo tizimida nazarda tutilmagan birorta majburlov chorasi jinoiy jazo sifatida tayinlanishi mumkin emas, jazolarning turlari, qo'llanish tartibi va asoslari faqat jinoyat qonunidagina belgilangan bo'lib, jazo tizimidagi jazolarning ro'yxati sudlar uchun majburiy hisoblanadi.

Jinoyat huquqi jinoyatchilikning oldini olishni asosan ikki yo'nalishda amalda oshiradi. Birinchi yo'nalish — jinoyat qonunida alohida jinoiy qilmish uchun jinoiy javobgarlikka tortilib jazolanishni belgilanishning o'zi, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar uchun qonun-da og'ir jazo choralarining belgilanganligi

jinoyatchilikning oldini olish vazifasini bajarish bilan birga tarbiyalash (jazolash bilan qo'rqtib) funktsiyasini ham bajaradi.

Jinoyat huquqi jinoyatchilikning oldini olishni asosan ikki yo'nalishda amalda oshiradi.

Birinchi yo'nalish — jinoyat qonunida alohida jinoiy qilmish uchun jinoiy javobgarlikka tortilib jazolanishni belgilanishning o'zi, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar uchun qonun-da og'ir jazo choralarining belgilanganligi jinoyatchilikning oldini olish vazifasini bajarish bilan birga tarbiyalash (jazolash bilan qo'rqtib) funktsiyasini ham bajaradi.

Ikkinciyo'nalish — jinoyat sodir etishda ayblanib, javobgarlikka tortilgan shaxsga nisbatan jazo qo'llash orqali amalga oshiriladi. Ya'ni jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan qonunda belgilangan jazoni tayinlab ularning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to'sqinlik qilinadi. Jinoyat huquqi tarbiyaviy funktsiyani ham bajaradi. Qonunda muayyan harakatlar uchun jinoiy javobgarlikning belgilanganligi jamiyatning qonun talablariga riosa qiladigan shaxslarning o'zlarining shaxsi, huquq va erkinliklari hamda mulklarining qonun orqali har qanday tajovuzlardan himoya qilinganligini his qilish, o'z faoliyatlarini hamda turmush muammolarini erkin, betashvish amalga oshirish imkoniyatini yaratadi, o'zini turli tajovuzlardan himoya qilinganligini his qiladi. Buning o'zi shaxsni barkamol shakllanishining muhim omillaridan biridir.

XULOSA

Xulosa qilganda, jinoiy javobgarlik, avvalo, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish va jazo qo'llash bilan bog'liqdir. Jinoyat sodir qilgan shaxsni javobgarlikka tortish muqarrar bo'lib, ammo har doim ham jazo qo'llash bilan bog'liq bo'lmasligi mumkin. O'zR JK Umumi qismining 7-bobida javobgarlikdan, 8-bobida jazodan ozod qilish to'g'risidagi normalar ko'zda tutilgan. Demak, javobgarlikka tortish tushunchasi ancha keng tushuncha bo'lib, aybdorga nisbatan jazo qo'llash yoki javobgarlikdan yoxud jazodan ozod qilish masalasi faqat jinoyat uchun javobgarlikka tortilganidan keyingina qo'llanishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Yuridik entsiklopediya /Yuridik fanlar doktori, professor u.Tadjixanovning umumi tahririda. – Toshkent.: Sharq, 2001. – B. 156 (656).
2. Saidov, S. (2022). JINOYAT VA JAZONING DOLZARBLIGI. Science and innovation, 1(C8), 477-479.

3. Yuridik entsiklopediya /Yuridik fanlar doktori, professor u.Tadzhixanovning umumiy tahririda. – T.: Sharq, 2001. – В. 163.
4. Карпец И.И. Наказание: социальные, правовые и криминологические проблемы. – М.:Юрид.лит.,1973.–С.138-148.; Беляев А. Цели наказания и средства их достижения. –Ленинград, 1963.–С.27.; ШаргородскийМ.Д.Наказание, его цели и эффективность.- Ленинград,1973. Анденес И. Наказание и предупреждение преступлений.- М.,1979.; Полубинская С.В. Цели уголовного наказания.- М.1990. Усмоналиев М. Жиноятхұқықи.Умумий қисм. Дарслик. –Тошкент.:Янги аср авлоди, 2005. Рустамбоев М.Х. Жиноят ҳұқықи.Умумий қисм. Дарслик.–Тошкент:Илм-Зиё,2005. ва башқалар.
5. Таганцев Н.С. Русское уголовное право. Лекции. Часть общая. Том 2. – Москва, 1994. – С.5
6. Khomidovich, B. A. (2023). DEVELOPMENT OF PRIVATE PROPERTY AND BUSINESS. *World Bulletin of Management and Law*, 18, 105-107.
7. Боротов, А. Х. (2021). ХУСУСИЙ МУЛК ҲҰҚЫҚИННИ АМАЛГА ОШИРИШ ШАРТЛАРИ: DE YURE/DE FACTO. ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, 6(5).
8. Baratov, M., & Borotov, A. (2021). METHODS AND RESOURCES OF REALIZING THE RIGHT OF PRIVATE PROPERTY OR THE RIGHT TO USE THE LAND AS AN ELEMENT OF PRIVATE PROPERTY. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.4 Legal sciences).
9. Ikhtiyor, I. (2021). Issues of Improving the Principle of Humanity in the Criminal and Penalty System. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 2(12), 56-59.
10. Ismoilov, I. (2022). ABOLITION OF THE DEATH PENALTY IS A SIGN OF A CIVILIZED DEMOCRATIC STATE. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 795-799.
11. Azamjonovich, I. I. (2022). CRIME AND PUNISHMENT SOCIAL PHILOSOPHICAL FEATURES OF INTERNATIONAL AND NATIONAL EXPERIENCES. Conferencea, 407-409.
12. A'zamjonovich, I. I. (2022). JINOyat VA JAZO: XALQARO VA MILLIY TAJRIBALARNING IJTIMOIY FALSAFIY XUSUSIYATLARI. *ILM-FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY QARASHLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR*, 160-161.
13. Evatov, S. (2022). THE ESTABLISHMENT OF SUFIS AND PHILOSOPHICAL DOCTRINE IN CENTRAL ASIA. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(1), 9-19.
14. Evatov, S. (2022). IDEAS OF HUMANITY AND THEIR STUDY IN CENTRAL ASIAN SUFISM. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(1), 20-32.
15. Evatov, S. (2022). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE

DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF ADOLESCENT STUDENTS ON THE BASIS OF FAMILY AND SCHOOL COOPERATION. *Science and Innovation*, 1(3), 182-190.

16. Evatov, S. (2022). REVIEW OF RESEARCH ON THE FORMATION OF MYSTICAL AND PHILOSOPHICAL IDEAS IN CENTRAL ASIA IN IX-XII CENTURIES. *Science and Innovation*, 1(3), 311-318.
17. Evatov, S. (2023). HUMANITY IN THE DOCTRINE OF SUFI IDEAS AND THEIR PRESENTATION THE ESSENTIALS OF THE DAY. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(5), 73-77.
18. Evatov, S. (2023). THE INFLUENCE OF GREEK PHILOSOPHY AND NON-ISLAMIC TRADITIONS ON THE FORMATION OF MYSTICAL TEACHINGS IN CENTRAL ASIA. *International Bulletin of Engineering and Technology*, 3(5), 29-32.
19. Evatov, S. S. (2023). History of Emergence of Mystical and Philosophical Teachings in Central Asia. *American Journal of Science on Integration and Human Development*, 1(3), 27-30.
20. Evatov, S. (2020). The Role Of Philosophical Traditions In The Interaction Of Official Islam And Mysticism In Khorasan And Central Asia. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(6), 107-112.
21. Evatov, S. (2020). THE EXPRESSION OF THE IDEAS OF ASCETIC THINKING AND ALTRUISM IN CENTRAL ASIAN MYSTICISM. *InterConf*.
22. Evatov, S. (2019). About The Synthesis Of Ibn Sina's Philosophical Teachings With Mysticism And Aristotelism. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(7), 174-179.
23. Ismailov, I. (2021). LIBERALIZATION OF CRIMINAL PENALTIES IS AN IMPORTANT FACTOR IN THE PROTECTION OF HUMAN RIGHTS. *Интернаука*, 10(186 часть 2), 101.
24. Azamjonovich, I. I. (2021). The death penalty for a crime and its philosophical and legal aspects. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(1), 1376-1381.
25. Ismoilov, I., & Qosimova, X. (2022). Oilada Erkin Fuqaro Shaxsi Va Barkamol Avlodning Shakllanishi. So 'Ngi Ilmiy Tadqiqotlar Nazariyası, 1(1), 232-238.